



BANK DEPOZIT SIYOSATINING RESURLAR JALB QILISHDAGI O'RNI

THE ROLE OF BANK DEPOSIT POLICY IN RESOURCE MOBILIZATION

¹**Rahimov Akmal
Matyaqubovich**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Bank hisobi va auditi" kafedrası professori, PhD.*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada bank depozit siyosatining resurs jalb qilishdagi o'rni tadqiq qilingan bo'lib, xususan, tijorat banklari depozit siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda uni shakllantirish jarayonlari va tamoyillari nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, tijorat banklari tomonidan resurslar jalb qilishda depozit siyosatining rolini oshirish yuzasidan takliflar berilgan.

Eng. - This article investigates the role of bank deposit policy in resource mobilization, focusing specifically on the main directions of commercial banks' deposit policies as well as the processes and principles of their formation from both theoretical and practical perspectives. Additionally, recommendations are provided on enhancing the role of deposit policy in resource mobilization by commercial banks.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banki, depozit, depozit siyosati, aholi omonatlari, bank resurslari, jalb qilingan mablag'lar.*

❖ *commercial bank, deposit, deposit policy, population deposits, bank resources, attracted funds.*

Kirish.

Depozit siyosati tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish va likvidligini ta'minlashda, shuningdek, ichki investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Depozit siyosati orqali tijorat banklari jismoniy va yuridik shaxslarning bo'sh turgan mablag'larini jalb qilib, ularni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga qayta taqsimlaydi. Bu orqali mamlakatda ishlab chiqarish jarayonlarini hamda ish bilan bandlar sonining ortishiga erishiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida respublikamiz bank tizimi bir qator yutuqlarga erishib kelmoqda. Mazkur holatni hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlarda bank tizimiga bo'lgan e'tibor yuqoriligi bilan e'tirof

etishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "...bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish"ga alohida e'tibor berilgan bo'lib, bunda asosiy maqsad bo'lib, bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish hisoblanadi [1].

Kredit qo'yilmalarining belgilangan me'yorlardan sezilarli darajada oshishi, aktivlar va passivlar tarkibi o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishi bank passivlari, xususan, mijozlardan jalb qilingan mablag'larning xatar darajasining oshganligini ko'rsatadi. Bu holat bank faoliyatining omonatchilar va kreditorlarning mablag'lariga,

shuningdek. ularning ishonchiga bog'liq ekanini ifodalaydi [2].

Shu nuqtai nazardan, bugunki kunda tijorat banklarining depozit siyosati samaradorligini yanada oshirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash va bu orqali bankning resurs jalb qilish masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Tijorat banklari depozit siyosati samaradorligini ta'minlash bevosita ularning moliyaviy jihatdan barqaror resurs bazasini shakllantirish imkoniyatini beradi. Shu sababli, tijorat banklari uchun samarali depozit siyosatini ishlab chiqish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi, chunki banklarning aktiv operatsiyalaridan olinadigan daromadlar ushbu siyosatning samaradorligiga bevosita bog'liq. Bu esa depozit siyosatini doimiy ravishda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

"Depozit" lotincha "depositum" so'zidan olingan bo'lib, "saqlashga qo'yilgan buyum", "omonat" degan ma'nolarni bildiradi. "Siyosat" so'zi grekcha "politike" so'zidan olingan bo'lib, "boshqarish", "rahbarlik qilish" degan ma'nolarni anglatadi [3]. Shuningdek, "depozit" so'zi 1) banklardagi naqd pul depozitlari (bank omonatlari); 2) kredit tashkilotiga saqlash uchun berilgan qimmatli qog'ozlar va pul mablag'lari; 3) talab qilinadigan to'lovni ta'minlash uchun to'lov sifatida amalga oshiriladigan turli tashkilotlarga mablag'lar kiritish; 4) mijozning bankka bo'lgan talablarini o'z ichiga olgan yoki tasdiqlovchi yozuvlar kabi ma'nolarni ham anglatadi [4]. Demak, "depozit siyosati"ning iqtisodiy mohiyatidan ko'rinib turibdiki, u "saqlashga qo'yilgan buyum" yoki "omonat"ni samarali "boshqarish" lozimligini izohlaydi.

Tijorat banklarining depozit siyosati sohasidagi ilmiy adabiyotlarni o'rganish asnosida bir qator olimlarning bu tushuncha to'g'risidagi fikrlarini ko'rib chiqish o'rinli deb hisoblaymiz. N.P.Belotelovanning fikricha, bankning depozit siyosati tijorat bankining

vaqtincha bo'sh pul mablag'larini omonat turlaridagi hisobvaraqlarga jalb qilish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, u bank resurs bazasining shakllanishi, barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [5]. Fikrimizcha, bank aktiv va passiv operatsiyalarining mutanosibligidan kelib chiqqan holda resurslarni jalb qilish bankning kelgusida barqaror resurs manbaiga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

Iqtisodchi olimlar O.I.Lavrushin va G.S.Panovalarning fikricha, bank depozit siyosati bu – mijozlarning omonatlarini jalb qilish hamda ularni samarali boshqarish bo'yicha bank siyosatidir [6, 7]. G.N.Beloglazova ta'kidlashicha, bank depozit siyosati tijorat banklarida mavjud bo'lgan turli xildagi omonatlarga vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jalb qilish jarayoni hisoblanadi [8]. Ta'kidlash joizki, tijorat banki tomonidan mukammal tarzda ishlab chiqilgan depozit siyosati barqaror resurs mablag'larining oshishiga xizmat qiluvchi muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim, professor A.A.Omonov fikricha, depozit siyosati deganda tijorat banklari tomonidan jalb qilingan mablag'lar hajmini oshirish va ularning tarkibiy tuzilmasini optimallashtirishga qaratilgan tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi [9]. Fikrimizcha, tijorat banklarining depozit siyosati jismoniy va yuridik shaxslarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish hamda keyinchalik mazkur mablag'larni o'zaro manfaatli asosda joylashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassam etgan bank siyosatidir.

Tadqiqot metodologiyasi.


Bank depozit siyosati shakllanishining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etishda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari o'rganilgan. Shuningdek, maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Banklarning joriy holatini o'rganish va tahlil qilish natijasida depozit operatsiyalarini samarali amalga oshirish zarurati yuzaga keladi, bu esa tijorat bankining depozit siyosatini shakllantirishni taqozo etadi. Depozit siyosatini shakllantirish quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi: mablag'larni jalb qilish bo'yicha zarur tartib-taomillarni ishlab chiqish, depozit operatsiyalari jarayonida samarali nazorat va boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish, shuningdek, bank xodimlarining

malakasini oshirish va ularning vakolatlarini aniq belgilash.

Bank depozit siyosatining shakllanish jarayoni murakkab hamda o'zaro uzviy bog'langan bosqichlardan iborat bo'lib, uning har bir tarkibiy elementi depozit siyosatini shakllantirishda inobatga olinishi va bank depozit operatsiyalarini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, tijorat banklari tomonidan depozit siyosatining asosiy yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.



1-rasm. Tijorat banklarida depozit siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari

Depozit xavfini kamaytirish maqsadida maqsadli bozorlarni aniqlash bank tomonidan eng ishonchli va barqaror depozit manbalarini aniqlashni nazarda tutadi. Maqsadli bozorlarni tanlash orqali bank resurs bazasining beqarorligidan kelib chiqadigan risklar minimallasadi. Bundan tashqari, bozordagi raqobat darajasi va mijozlarning ishonchlilik darajasi ham tahlil qilinadi.

Depozit siyosati bank likvidligini ta'minlash va uning barqarorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tijorat banklari uchun likvidlik darajasini saqlab qolish — bu kundalik faoliyatda qarzdorlik majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, mijozlarga xizmat ko'rsatish va bozor ishonchini ta'minlash uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Depozit va kredit portfellarini boshqarishni optimallashtirish, avvalo,

depozitlar va kreditlar o'rtasida resurslar muddatining muvofiqligini (ya'ni likvidlik mosligini) ta'minlashni talab etadi. Optimallashtirilgan deposit siyosati depozit va kreditlar o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olib, aktiv va passiv operatsiyalarni uyg'unlashtirish orqali foydani oshirishga xizmat qiladi.

Bank uchun har bir jalb qilingan depozit muayyan xarajatlarni keltirib chiqaradi (foiz to'lovlari, reklama xarajatlari, xizmat ko'rsatish xarajatlari va boshqalar). Depozit siyosatining ushbu yo'nalishi ushbu xarajatlarni minimallashtirishga qaratiladi. Xarajatlarni kamaytirish bank rentabelligini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, har bir tijorat bankining samarali va puxta o'ylangan depozit siyosatini ishlab chiqishdan ko'zlagan asosiy maqsadi

bankning xarajatlarini minimallashtirish hamda mavjud xatarlarni inobatga olgan holda zarur likvidlilik darajasini ta'minlash orqali resurs bazasini kengaytirishdan iboratdir.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun bank depozit siyosatini umumiy va muayyan tamoyillarga asoslangan holda shakllantirish muhim sanaladi. Umumiy tamoyillar deganda makroiqtisodiy darajada Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosati hamda barcha tijorat banklari uchun mos bo'lgan konseptual yondashuvlar tushuniladi. Bular jumlasiga integrallashgan yondashuv (ya'ni, depozit siyosatining nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda uni rivojlantirishning samarali usullarini belgilash), ilmiy asoslanganlik, maqbullik va samaradorlik, shuningdek, bank depozit siyosatining barcha elementlarining o'zaro uyg'unligi va birligi kabi tamoyillar kiradi.

Ushbu tamoyillar bankning depozit siyosatini shakllantirishda strategik va tizimli yondashuvni ta'minlaydi hamda uning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tamoyillarga amal qilish natijasida bank depozit operatsiyalarini samarali tashkil etish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa depozit siyosatining strategik va taktik yo'nalishlarini belgilash orqali uning samaradorligini oshirish va uni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bank depozit siyosatining asosiy vazifasi — depozit mablag'larini jalb qilish va ularni samarali boshqarishdan iborat. Shu bois, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan jalb qilinayotgan depozit mablag'larining joriy holati, tarkibi va dinamikasini tahlil qilish, shuningdek, zarur xulosalarni shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega.

1-jadval

2020–2024-yillar davomida tijorat banklarida shakllangan depozitlar tarkibi
(trln. so'm va foizda) [10]

<i>Ko'rsatkichlar</i>	<i>Jami depozitlar</i>	<i>Yuridik shaxslar depozitlari</i>		<i>Aholi omonatlari</i>	
		<i>jami</i>	<i>% da</i>	<i>jami</i>	<i>% da</i>
2020	165	110	67	55	33
2021	190	125	66	65	34
2022	220	143	65	77	35
2023	250	160	64	90	36
2024	275	175	63,6	100	36,4

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan jalb qilinayotgan depozitlar hajmi yildan-yilga izchil o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, 2020-yilda 165 trln. so'mni tashkil etgan jami depozitlar hajmi 2024-yilda 275 trln. so'mga yetgan. Bu holat tijorat banklari tomonidan depozit mablag'larini jalb qilish va ularni samarali boshqarish masalalariga ustuvor ahamiyat berilayotganidan dalolat beradi. Ushbu

tendensiya aholi omonatlari va yuridik shaxslar depozitlari tarkibining ham o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Banklar tomonidan vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ulardan oqilona foydalanish zamonaviy bank tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida banklarning barqaror resurs bazasini shakllantirish, ushbu resurslarni samarali boshqarish va ularning sifat ko'rsatkichlarini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Hozirgi davrda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish, eng avvalo, mablag'lar xavfsizligini ta'minlash orqali amalga oshirilmoqda. Bu borada jozibador omonat turlarini taklif etish hamda bank xizmatlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari tomonidan depozit mablag'lari hajmining yillar davomida o'sib borishini quyidagi asosiy omillar bilan izohlash mumkin:

1. Aholining moliyaviy savodxonlik darajasining ortishi;
2. Bank tizimiga nisbatan ishonchning ortishi;
3. Samarali depozit siyosatining amalga oshirilishi;
4. Jozibador va mavsumiy omonat turlarining taklif etilishi.

Aholining moliyaviy savodxonlik darajasining ortishi fuqarolarning bo'sh pul mablag'larini xavfsiz va foydali shaklda saqlash zaruratini anglashlariga olib kelmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, moliyaviy muassasalar javobgarligining oshishi bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlab, omonatchilar sonining ortishiga zamin yaratmoqda. Shuningdek, tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilgan samarali va maqsadli depozit siyosati, mijozlarning ehtiyojlariga mos jozibador, mavsumiy va individual yondashuv asosida shakllantirilgan omonat turlarining keng doirada taklif etilishi depozit bazasini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu holat tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda, mamlakat moliya tizimining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa va takliflar.

Banklar tomonidan depozitlarni boshqarish jarayonida depozit bozori holati va uning tahlilidan kelib chiqib shuni ta'kidlash

mumkin-ki, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ishlab chiqilayotgan va amaliyotga tatbiq qilinayotgan depozit siyosati muhim o'rin tutadi. Bunday siyosatning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilarda namoyon bo'ladi: bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash; resurslarni maqbul muddat, shart va foiz stavkalarida jalb qilish; aktiv va passivlarni muvozanatli boshqarish orqali barqaror resurs bazasini shakllantirish; depozitlarga xizmat ko'rsatish orqali bank daromadlari va moliyaviy barqarorligini oshirish; shuningdek, yangi, jozibador va manfaatli depozit turlarini taklif etish orqali jamg'arish va investitsiya jarayonlarining faolligini rag'batlantirish.

Tijorat banklari resurs bazasini kengaytirish va depozit siyosatini samarali shakllantirish uchun bir qator omillarni inobatga olishlari zarur. Jumladan: depozit bahosiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish va eng maqbul foiz stavkasini belgilash, marketing strategiyalarini keng qo'llash orqali siyosatni doimiy takomillashtirish, depozit bozorining holatini tahlil qilish, omonatchilar bilan bank xodimlari o'rtasidagi muloqotni tizimlashtirish, depozitlar bilan ishlash jarayonini mijozlar uchun qulaylashtirish, xodimlarni ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirish kabi samarali choralardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, tijorat banklari depozit siyosatini ishlab chiqishda Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy me'yorlar, majburiy zaxiralar stavkalari, asosiy foiz stavkasi, soliq qonunchiligi, moliyaviy bozordagi likvidlik darajasi va resurslar harakati tendensiyalarini ham hisobga olishlari lozim. Yuqoridagi yondashuvlar asosida shakllantirilgan depozit siyosati banklar resurs bazasining mustahkamlanishiga, barqaror moliyaviy faoliyat yuritishiga va mijozlar ishonchini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni//lex.uz.
2. Bollard A. Corporate governance in the financial sector//BIS Review. 2003. № 18. P. 2. (<http://www.bis.org/review/ro3o416b.pdf>).
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida (2006-2008). <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/>
4. Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Современный экономический словарь. 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2007. - 495 с.
5. Белотелова Н.П. Деньги. Кредит. Банки: учебник/ – М.: Дашков и К, 2016. – 482 с.
6. Лаврушин О.И. Банковский менеджмент: Учеб. - М.: Кнорус, 2011. - 560 с.
7. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. - М.: ДИС ИПФК, 1997. - 464 с.
8. Белоглазова Г.Н. Банковское дело: Учебник. - М.: Финансы и статистика, 2014. - 591 с.
9. Omonov A.A., Raximov S. Tijorat banklari depozit siyosatining shakllanish va rivojlanish masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018-yil. www.interfinance.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari - www.cbu.uz